



Jismoniy shaxslarga "online kredit"mikroqarz ajratish bo'yicha OFERTA SHARTNOMASI

"Mikrokreditbank" aksiyadorlik tijorat banki (bundan buyon shartnoma matnida "Bank" deb yuritiladi) bir tomondan va keyingi oʻrinlarda "Qarz oluvchi" deb ataluvchi jismoniy shaxs ikkinchi tomondan (birgalikda esa "Tomonlar" deb ataluvchilar yoki alohida "Tomon" deb ataluvchi) ushbu kredit oferta shartnomasini (keyingi oʻrinlarda - "shartnoma" deb ataladi) quyidagilar toʻgʻrisida tuzdilar:

1. Asosiy tushunchalar

1.1. Ushbu shartnomada quyidagi tushunchalardan foydalaniladi:

"Online kredit"- mikroqarz – "Mikrokreditbank" ATB ish haqi loyihasi ishtirokchilari boʻlgan jismoniy shaxslarga qaytarishlik, toʻlovlilik va muddatlilik shartlari asosida milliy valyutada "MAVRID" ilovasi orqali beriladigan mikroqarz.

"Online kredit"- mikroqarzni qaytarish muddati – kredit boʻyicha asosiy qarz va foizlarni qaytarish muddati.

2. Shartnoma predmeti

2.1. Bank qarz oluvchiga, ushbu shartnomada nazarda tutilgan shartlarda

ДОГОВОР-ОФЕРТЫ на выдачу микрозайма "online кредит" для физических лиц

Акционерно-коммерческий банк "Микрокредитбанк" (далее по тексту договора "Банк") с одной стороны, и физическое лицо, именуемое дальнейшем "Заемщик" с другой (совместно стороны именуемые "Стороны" или отдельно именуемое "Сторона") заключили договор оферты кредита (далее – "договор") о нижеследующем:

1. Основные понятия

1.1. В настоящем Договоре используются следующие термины:

"Online кредит"- микрозайм – микрозайм, предоставляемый физическим лицам - участникам зарплатного АКБ проекта "Микрокредитбанк" в национальной приложение валюте через "MAVRID" условиях на возвратности, платности И срочности.

Срок погашения микрозайма - "Online кредит" - срок погашения основного долга и процентов по кредиту.

2. Предмет договора

2.1. Банк предоставляет заемщику микрозайм в соответствии





kredit berishning va umumiy qoidalariga rioya etgan holda (muddatliligi, qaytarishliligi va to'lovliligi) mikroqarz ajratadi, qarz oluvchi esa undan amaldagi qonunchilik bilan cheklanmagan maqsadlar uchun foydalanadi va bankka olingan kredit summasi va unga hisoblangan foizlarni shartnomada belgilangan muddat va shartlarda toʻliq qaytaradi.

3. Shartnomani akseptlash

- 3.1. Ushbu shartnoma Oʻzbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 367-moddasi va 369-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq ommaviy oferta hisoblanadi.
- 3.2. Mijoz "MAVRID" mobil ilovasiga kirib, ilovaning yoki uning ayrim xizmatlaridan foydalanishni ma'qullaganda, Shartnoma Oʻzbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 370-moddasiga asosan aktseptlangan hisoblanadi hamda mijoz qarz oluvchi va toʻlovlarni amalga oshiruvchi sifatida qatnashadi.

4. Umumiy qoidalar

4.1. "Online kredit" – mikroqarz qarz oluvchining nomiga milliy valyutada ochilgan bank kartasiga pul mablag'larini o'tkazib berish orqali 2 yil muddatga qaytarish sharti bilan ajratiladi.

с условиями настоящего Договора и в соответствии с общими правилами кредитования (срочности, платности возвратности), a заемщик использует его целях, не ограниченных применимым законодательством, И возвращает банку сумму кредита и начисленные проценты в полном объеме в сроки и на условиях, указанных в договоре.

3. Акцептирование договора

- 3.1. Настоящий договор является публичной офертой в соответствии со статьей 367 и частью второй статьи 369 Гражданского кодекса Республики Узбекистан.
- 3.2. Договор считается акцептированным, a также подтверждается участие клиента в качестве заемщика и плательщика при входе клиента в мобильное приложение "MAVRID" и одобрении использования приложения или отдельных его сервисов на основании статьи 370 Гражданского кодекса Республики Узбекистан.

4. Основные правила

4.1. Микрозайм-"Online

кредит" — выдается путем перечисления денежных средств на банковскую карту заемщика, открытую в национальной валюте на условиях погашения сроком на 2 год.





- 4.2. Ushbu oferta shartnomasi tasdiqlangandan e'tiboran 1 (bir) bank ish kuni ichida bank qarz oluvchiga mikroqarzdan foydalanish imkonini beruvchi ssuda hisobvaragʻini ochadi va ushbu shartnomaning 4.4-bandiga asosan mikroqarz miqdorini belgilaydi.
- 4.3. "Online kredit"-mikroqarzning mijoz tomonidan olinishi mumkin boʻlgan bank tomonidan belgilan maksimal miqdori 30 000 000 (oʻttiz million) soʻm 00 tiyinni tashkil etadi.
- 4.4. "Online kredit"-mikrogarz **miqdori** – kreditning mijoz tomonidan olinishi mumkin bo'lgan bank belgilangan maksimal tomonidan miqdori doirasida qarz oluvchining bank kartasiga kirim bo'lgan ish haqi, pensiya va unga tenglashtirilgan daromadlarini skoring tahlil qilgan holda aniqlangan mikroqarz toʻlovi qobiliyatiga yetarli miqdor.
- 4.5. "Online kredit"-mikroqarz qarz oluvchining nomiga milliy ochilgan valyutada bank kartasi (keyingi oʻrinlarda – "BK") ga oʻtkazib berish orqali tanlangan kredit muddatida grafik asosida qaytarish sharti bilan ajratiladi.
- 4.6. "Online kredit"-mikroqarz summasi oʻtkazilganligi toʻgʻrisidagi

- 4.2. Банк в течение 1 (одного) даты одобрения рабочего дня c договора-оферты настоящего ссудный открывает счет, заемщику позволяющий микрозаймом воспользоваться микрозайма определяет сумму В пунктом соответствии 4.4 c настоящего Договора.
- 4.3. Максимальная сумма микрозайма "Online кредит", которую может получить клиент, установлена банком в размере 30 000 000 (тридцать миллионов) сум 00 тийин.
- микрозайма 4.4. Сумма "Online кредит" сумма, необходимая получения ДЛЯ микрозайма в максимальной сумме займа, установленная банком, которая может быть получена клиентом определена путем И скоринг анализа заработных плат, пенсий И иных доходов, поступивших на банковские карты заемщика.
- 4.5. Микрозайм "Online кредит" выдается путем перечисления денежных средств на банковскую карту (далее "БК") заемщика, открытую в национальной валюте, при условии погашения по графику на выбранный срок кредита.
- 4.6. **Сумма микрозайма "Online кредит"** считается выданной после





ssuda hisobvaragʻida tegishli buxgalteriya oʻtkazmasi aks ettirilganidan soʻng berilgan hisoblanadi.

- 4.7. "Online kredit"-mikroqarz boʻyicha yillik **30 (oʻttiz)** foiz miqdorida ustama haq hisoblanadi.
- 4.8. Foizlar mikroqarzning asosiy qarzi soʻndirilguncha boʻlgan davr uchun hisoblanadi.
- 4.9. Qarz oluvchi mazkur shartnomaga asosan mikroqarzning asosiy qismini va foiz toʻlovlarini oʻz vaqtida amalga oshirishi lozim.
- 4.10. Ajratilgan kreditga hisoblangan foizlar 30 kun muddat ichida undirilmagan taqdirda, ular 16377 (shartnomaga koʻra hisoblab yozilgan, biroq muddatida toʻlanmagan olinishi lozim boʻlgan foizlar) hisob raqamiga olib boriladi.
- 4.11. Qarz oluvchining BK hisobvarag'iga har oy kirim qilinadigan oylik ish haqi, pensiya va boshqa turdagi kelib tushgan mablag'lari hamda naqd pul hisobidan mazkur shartnoma shartlariga muvofiq mikrogarzning asosiy qarzi va foiz qarzdorliklari so'ndirilib boriladi. Bunda, birinchi navbatda, muddati o'tgan foizlar va muddati o'tgan asosiy qarz, keyingi navbatda hisoblangan joriy foiz qarzdorligi va joriy asosiy qarz soʻndiriladi.

отражения соответствующей бухгалтерской проводки на ссудном счете.

- 4.7. Процентная ставка по микрозайму "Online кредит" составляет 30 (тридцать) процентов годовых.
- 4.8. Проценты начисляются за период до погашения основного долга по микрозайму.
- 4.9. Согласно настоящему договору, заемщик должен своевременно выплачивать основную часть микрозайма и проценты по нему.
- 4.10. Если проценты, начисленные по выделенному кредиту, не уплачены в течение 30 дней, они переводятся на счет 16377 (начисленные, но не оплаченные в срок по договору проценты к получению).
- 4.11. В соответствии с условиями настоящего договора основной долг процентная задолженность микрозайму погашаются счет ежемесячной заработной платы, пенсий И иных доходов, поступивших на счет БК заемщика и наличных денежных средств. При этом в первую очередь погашаются просроченные проценты просроченный основной долг, затем текущий процентный долг и текущий основной долг.





5. Taraflarning huquq va majburiyatlari

5.1. Bankning majburiyatlari:

- 5.1.1. Qarz oluvchiga "MAVRID" ilovasini yuklab olishda va ishga tushirishda amaliy yordam berish.
- 5.1.2. "MAVRID" ilovasi orqali "online kredit"-mikroqarz ajratish boʻyicha skoring tahlil qilish va mikroqarz toʻlov qobiliyati yetarli miqdori belgilangandan soʻng 1 (bir) bank ish kuni ichida mijozga ssuda va boshqa zarur hisobvaraqlarni ochish.
- 5.1.3. Qarz oluvchi BK egasiga mazkur oferta shartnomasining 4.4 bandida belgilangan miqdor doirasida "MAVRID" ilovasi orqali "online kredit"-mikroqarz ajratish.
- 5.1.4. Aniqlangan "Online kredit"mikroqarz summasini qarz oluvchining nomiga milliy valyutada ochilgan bank kartasiga oʻtkazib berish.
- 5.1.5. Qarz oluvchining BK hisobvaragʻidagi mablagʻlarini hamda qarz oluvchi tomonidan mikroqarzning asosiy qarzi va foiz qarzdorliklarini soʻndirish boʻyicha naqd pul koʻrinishidagi toʻlovlarini mazkur oferta shartnomasi shartlariga muvofiq mikroqarzning asosiy qarzi va foiz

5. Права и обязанности сторон

5.1. Банк обязан:

- 5.1.1. Оказать практическую помощь заемщику в загрузке и запуске приложения "MAVRID".
- 5.1.2. Через приложение "MAVRID" осуществить скоринг микрозайма анализ ДЛЯ выдачи "online кредит" и открыть ссудный и другие необходимые счета клиенту в течение 1 (одного) банковского рабочего дня после определения достаточной суммы платежеспособности микрозайма.
- 5.1.3. Осуществить выдачу микрозайма "online кредит" владельцу БК заемщику через приложение "MAVRID" в пределах суммы указанной в пункте. 4.4 настоящего договора-оферты.
- 5.1.4. Осуществить перевод суммы денежных средств микрозайма "Online кредит" на банковскую карту заемщика, открытую в национальной валюте.
- 5.1.5. Направлять денежные средства заемщика на счете БК, а также наличные денежные выплаты, произведенные заемщиком ДЛЯ погашения задолженностей ПО основному долгу процентных И платежей на погашения задолженностей по основному долгу процентных платежей И В





qarzdorliklarini soʻndirishga yoʻnaltirib borish.

5.1.6. Bank tomonidan mazkur bo'vicha garzdorliklarni so'ndirish uchun bank hisobvarag'i va (yoki) bank omonatidan (shu jumladan, bank kartalari bo'yicha) mablag'lar egasining hisobvaraq (omonat) topshirig'isiz hisobdan chiqarilganda, ushbu mablag' hisobdan chiqarilgan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmagan holda hisobvaraq (omonat) egasiga uning hisobvarag'idan qancha miqdordagi mablag' qanday sabablarga asosan va kimning foydasiga chiqarilganligini koʻrsatgan holda xabarnoma (ma'lumotnoma) (shaxsan, pochta orqali, mobil telefonga SMS va boshqa qanallar orqali) yuborish.

5.2. Bankning huquqlari:

5.2.1. "Online kredit"mikrogarzning asosiy qarzi shartnomada belgilangan muddatda so'ndirilmaganda, yuzaga kelgan qarzdorliklarni mazkur oferta shartnomasida belgilangan qo'shimcha foizlar bilan birgalikda qarz oluvchining oʻziga tegishli boʻlgan mol-mulki, uy jihozlari va boshqa qimmatbaho buyumlari hamda oylik ish hisobidan belgilangan tartibda undirish choralarini koʻrish.

5.2.2. Qarz oluvchi tomonidan "Online kredit"-mikroqarzning asosiy

соответствии с условиями настоящего договора-оферты.

5.1.6. Направлять владельцу счета (депозита) уведомление (справку) (лично, ПО почте, посредством СМС, на мобильный телефон и по другим каналам) при списании банком денежных средств с банковского счета И (или) банковского вклада (в том числе по банковским картам) без распоряжения владельца счета (депозита) погашения целях задолженностей по данному кредиту о том, по каким причинам, в чью пользу и сколько денег было снято с его счета не позднее следующего рабочего дня со дня списания.

5.2. Банк в праве:

5.2.1. Принять меры ПО взысканию основной задолженности дополнительных процентов соответствии с договором-оферты в порядке установленном за имущества заемщика, предметов быта и других ценностей, а также за счет его ежемесячной заработной случае непогашения платы В основного долга микрозайма "Online кредит" в указанные сроки согласно договору-оферты.

5.2.2. В соответствии со статьей 783 Гражданского кодекса





qarzi va foiz qarzdorliklari shartnomada belgilangan muddatda soʻndirilmagan O'zbekiston Respublikasi taqdirda Fuqarolik Kodeksining 783-moddasiga muvofiq mikroqarzning asosiy qarzi va foiz qarzdorliklari bo'yicha zarur mablag'larni O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha bank muassasalarida har qanday valyutada ochilgan qarz oluvchiga tegishli boʻlgan bank karta (BK) lari va omonat hisobvaraqlaridagi pul mablag'laridan akseptsiz ravishda undirib olish.

Agarda akseptsiz undirib olish qarz oluvchiga tegishli boʻlgan xorijiy valyutada ochilgan bank karta (BK) lari va omonat hisobvaraqlariga nisbatan qoʻllanilsa, mikroqarzning asosiy qarzi va foiz qarzdorliklari boʻyicha zarur mablagʻlarni yechib olinadigan sanada Markaziy bankning valyutani sotish kursi boʻyicha konvertatsiya qilingan holda akseptsiz tartibda yechib olish.

5.2.3. Ushbu shartnoma shartlarining bajarilishini ta'minlash qarz oluvchini magsadida, "Kredit axboroti tahliliy markazi" kredit byurosi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Kredit Axboroti Milliy Institutining ma'lumotlari asosida tahlil qilish.

Республики Узбекистан взыскать необходимые денежные средства по долгу основному И процентной задолженности микрозайма безакцептном порядке с банковских карт (БК) и с депозитных счетов, принадлежащих заемщику, открытых в любой валюте во всех банковских учреждениях Республики Узбекистан в случае непогашения заемщиком основного долга и процентной задолженности по микрозайму "Online кредит" в срок, указанного в договоре.

В случае применения безакцептного списания К банковским картам (BK) И депозитным счетам, открытым В иностранной валюте И принадлежащих заемщику, выполнить списание необходимых денежные средств по основному долгу и процентной задолженности микрозайма в безакцептном порядке, конвертируя ИХ ПО курсу Центрального банка дату на списания.

5.2.3. Осуществлять анализ заемщика помощью данных кредитного бюро "Кредитный информационно-аналитический центр" и Национального института кредитной информации Центрального Республики банка Узбекистан обеспечения ДЛЯ





5.2.4. Qarz oluvchini 2 bosqichda: mikroqarz ajratish uchun ariza tushgandan soʻng hamda mikroqarz mablagʻlari ajratilishidan oldin kreditga layoqatlilik skoring tahlilidan oʻtkazish.

Bunda, skoring tahlillarining natijalariga koʻra bank bir tomonlama qarz oluvchiga kredit ajratishni rad etishga yoki "Online kredit"-mikroqarz miqdorini kamaytirishga haqli.

- 5.2.5. Firibgarliklarning oldini olish va mikroqarz qarz oluvchining aynan oʻzi tomonidan olinayotganligini tasdiqlash maqsadida qarz oluvchini qoʻshimcha tasdiqdan oʻtkazish;
- 5.2.6. Firibgarliklarning oldini olish va mikroqarz qarz oluvchining aynan oʻzi tomonidan olinayotganligini tasdiqlash maqsadida qarz oluvchi qayta tasdiqdan muvaffaqiyatli oʻtguncha boʻlgan davrda qarz oluvchining bank kartasiga oʻtkazilgan onlayn mikroqarz mablagʻlariga vaqtincha (48 soat davomida) cheklov qoʻyish. Bunda quyidagi operatsiyalarga cheklov belgilanadi:
 - P2P operatsiyalari;
- jismoniy shaxslarning hisobvaraqlari va elektron hamyonlariga o'tkazmalar;
- P2P o'tkazmalar orqali to'ldirish imkonini beruvchi mobil aloga

выполнения условий данного договора.

5.2.4. Проверить заемщика на кредитоспособность через скоринговый анализ в 2 этапа: после получения заявки на предоставление микрозайма и до выделения средств микрозайма.

В этом случае, по результатам скорингового анализа банк имеет право в одностороннем порядке отказать в выдаче кредита заемщику или уменьшить сумму микрозайма "Online кредит".

- 5.2.5. Провести дополнительное подтверждение заемщика с целью предотвращения мошенничества и подтверждения того, что микрозайм получает сам заемщик;
- 5.2.6. В целях предотвращения мошенничества и подтверждения того, что микрозайм получает сам заемщик, устанавливать временное (в течение 48 часов) ограничение на средства онлайн микрозайма, переведённые на банковскую карту заемщика ДО успешного прохождения заемщиком дополнительной подтверждении. В ЭТОМ случае устанавливатся временное (в течение 48 часов) ограничение на следующие <mark>операции:</mark>
 - Р2Р-операции;





operatorlariga telefon raqami hisobini to'ldirish;

- chet el to'lovlari yoki o'tkazmalariga va valyuta ayirboshlash bo'yicha onlayn operatsiyalardan foydalanish;

 - bank ixtiyoriga ko'ra boshqa cheklovlar (choralar);

5.2.7. Qarz oluvchi qoʻshimcha tasdiqdan oʻtmagan holda mikroqarz mablagʻlarining ma'lum bir qismi naqdlashtirish yoki toʻlovlar uchun sarflangan taqdirda, firibgarlik holatlarining oldini olish maqsadida onlayn mikroqarz mablagʻlarini sarflashga qoʻyilgan cheklovlarni 48 soat oʻtgandan keyin ham saqlab qolish;

5.2.8. Qarz oluvchi qoʻshimcha tasdiqdan oʻtishdan bosh tortganda, onlayn mikroqarz mablagʻlarini sarflashga qoʻyilgan cheklovlarni olib tashlashdan bosh tortish;

5.2.9. Qarz oluvchi qoʻshimcha tasdiqdan belgilangan muddat ichida oʻtmagan taqdirda mikroqarz shartnomasini bir tomonlama bekor qilish va qarz oluvchidan mikroqarz mablagʻlarining qaytarilishini talab

- переводы на счета и электронные кошельки физических лип:

 пополнение счетов телефонных номеров через мобильные операторы, позволяющих пополнять счета посредством Р2Р-переводов;

- пользования международными платежами или переводами, а также онлайн-операциями по обмену валют;

- иные ограничения (меры) по усмотрению банка;

5.2.7. B случае расходования заемщиком определенной части средств микрозайма на обналичивание или выплаты без прохождения заемщиком дополнительного подтверждения, ограничения расходование на средств онлайн микрозайма будут сохраняться даже после истечения 48 часов в целях предотвращения мошенничества;

5.2.8. Отказать от снятия ограничений на использование средств онлайн микрозайма при отказе заемщика от прохождения дополнительной подтверждении;

5.2.9. В случае не прохождения заемщиком дополнительного подтверждения в указанный срок, расторгнуть договор микрозайма в одностороннем порядке и потребовать от заемщика возврата денежных средств микрозайма, а





qilish, shuningdek, qarz oluvchidan mikroqarz mablagʻlarini qaytarib olish;

- 5.2.10. Mikroqarz qarz oluvchi tomonidan muddatida qaytarilmagan holda muddati oʻtgan kredit asosiy qarzdorligiga mazkur oferta shartnomasining 4.7-bandida koʻrsatilgan foiz miqdori darajasidan 1,5 baravarga oshirilgan miqdorda foiz hisoblashni amalga oshirish.
- 5.2.11. Mazkur oferta shartnomasining 4.4-bandida belgilangan "Online kredit"-mikroqarz miqdori doirasida mijoz tomonidan 3 bank ish kuni ichida kredit mablag'laridan foydalanilmagan taqdirda oferta shartnomasini bekor qilish va kredit liniyasini yopish.

5.3. Mijozning majburiyatlari:

- 5.3.1. "Online kredit"mikroqarzdan foydalanish uchun "MAVRID" ilovasini yuklab olib ishga tushirish va undan foydalanish.
- 5.3.2. Mikroqarz olish uchun qoʻshimcha tasdiqdan oʻtish. Bunda, qarz oluvchi mikroqarz uchun ariza berish paytida bank tomonidan yuborilgan SMS-xabarda koʻrsatilgan bank telefon raqamiga qoʻngʻiroq qilib, bank mas'ul xodimiga quyidagi ma'lumotlarni taqdim qiladi:
 - familiyasi, ismi, sharifi;
- onlayn mikroqarz olish uchun ariza berilgan sana va vaqt;

также, возвращать денежные средства по микрозайму с заемщика;

- 5.2.10. В случае не погашения в срок заемщиком начислять проценты в увеличенном размере в 1,5 раза от уровня процента, указанной в пункте 4.7 настоящего договора-оферты к просроченному основному долгу по кредиту.
- 5.2.11. Аннулировать договороферты и закрыть кредитную линию в пределах суммы микрозайма "Online кредит", указанной в п. 4.4 настоящего договора-оферты в случае неиспользования клиентом кредитных средств в течение 3-х банковских рабочих дней.

5.3. Клиент обязан:

- 5.3.1. Загрузить, запустить и использовать приложение "MAVRID" чтобы воспользоваться микрозаймом "Online кредит".
- 5.3.2. Пройти через дополнительное подтверждение на получение микрозайма. В этом случае заемщик звонит на номер телефона банка, указанный в СМС-сообщении, отправленном банком при оформлении микрозайма, и сообщает ответственному сотруднику банка следующую информацию:
 - фамилию, имя, отчество;





- onlayn mikroqarz olish uchun berilgan arizada koʻrsatilgan mablagʻ miqdori.

Ushbu ma'lumotlarni o'zida qayd etgan bank mas'ul xodimi ma'lumotlarni tekshirib, qarz oluvchining mikroqarz olish uchun bergan arizasida ko'rsatilgan telefon raqamiga qayta qo'ng'iroq qiladi.

Bank mas'ul xodimi qarz oluvchiga qayta qo'ng'iroq qilganida qarz oluvchi quyidagi ma'lumotlarni taqdim etishi shart:

- familiyasi, ismi va sharifi;
- passport ma'lumotlari;
- onlayn mikroqarz olish uchun arizaning oʻz tomonidan kiritilganligini yoki boshqa shaxs tomonidan kiritilganligi toʻgʻrisida ma'lumot;
- ariza firibgarlar ta'sirida berilgan bo'lsa, qaysi ma'lumotlar firibgarlarga oshkor qilingani hamda ular bilan videoqo'ng'iroq vositasi bog'langanligi;
- onlayn mikroqarz olishga ariza berilgan mobil qurilma rusumi;
- onlayn mikroqarz olishga ariza yuborilgan sana va vaqt;
- firibgarlik holatlarining oldini olishga qaratilgan boshqa savollar ham berilishi mumkin.
- 5.3.3. Belgilangan muddatda qoʻshimcha tasdiqdan oʻtmaslik tufayli mikroqarz shartnomasi bank tomonidan

- дата и время подачи заявки на онлайн микрозайм;
- сумма денег, указанная в заявке на онлайн микрозайм.

Ответственный сотрудник кредитной организации, зафиксировав данную информацию, проверяет ее и перезванивает на номер телефона, указанный в заявлении заемщика на получение микрозайма.

Когда ответственный сотрудник банка повторно позвонит заемщику, заемщик должен предоставить следующую информацию:

- фамилию, имя, отчество;
- паспортные данные;
- информация о том, подавалась
 ли заявка на онлайн микрозайм
 самостоятельно или другим лицом;
- если заявка была подана под влиянием мошенников, какая информация была раскрыта мошенникам и связывались ли с ними посредством видеозвонка;
- модель мобильного устройства, через которого была отправлена заявка на онлайн микрозайм;
- дата и время подачи заявки на онлайн микрозайм;
- могут быть заданы иные вопросы, направленные на предотвращение мошенничества.
- 5.3.3. В случае расторжения договора микрозайма банком в одностороннем порядке в связи с





bir tomonlama bekor qilinganda, mikroqarz mablagʻlarini bankka toʻliq qaytarish;

- 5.3.4. Mazkur oferta shartnomasida aniqlangan "Online kredit"-mikroqarz miqdorini "MAVRID" ilovasi orqali oʻzining bank kartasiga toʻliq yuklab olish.
- 5.3.5. "Online kredit"-mikroqarz qoldigʻini ushbu shartnomada koʻrsatilgan muddatlarda BK hisobvaragʻiga kirim qilinadigan oylik ish haqi, pensiya yoki boshqa turdagi mablagʻlar hisobidan hamda naqd pul mablagʻlarini kirim qilish orqali oʻz muddatida soʻndirib borish.
- 5.3.6. Har oylik rasmiy daromad (BK, omonat) ga ega ekanligini tasdiqlash.
- 5.3.7. "Online kredit"mikroqarzdan foydalanish uchun skoring tahlili asosida aniqlangan ish haqi yoki pensiya daromadlarining bank kartasiga tushishini ta'minlash.
- 5.3.8. Oylik ish haqi yoki pensiya miqdori kamaygan taqdirda bu haqda bank hududiy boʻlinmasini 5 (besh) bank ish kuni mobaynida xabardor qilish;
- 5.3.9. Ishdan boʻshagan taqdirda, ish beruvchiga ishdan boʻshatish toʻgʻrisida ariza bergan kundan keyin

- непрохождением дополнительного подтверждения в установленный срок, полностью вернуть банку денежные средства микрозайма;
- 5.3.4. Полностью загрузить указанную в настоящем договореоферты сумму микрозайма "Online кредит" на банковскую карту через приложение "MAVRID".
- 5.3.5. Своевременно погашать остаток микрозайма "Online кредит" за счет ежемесячной заработной платы, пенсии или иных видов денежных средств, зачисляемых на счет БК в сроки, указанные в настоящем договоре, а также путем своевременного зачисления наличных денежных средств.
- 5.3.6. Подтвердить ежемесячный официальный доход (БК, депозит).
- 5.3.7. Обеспечить поступление заработной платы или пенсионного дохода, определенного на основании скоринг анализа на банковскую карту банка, чтобы воспользоваться микрозаймом "Online кредит".
- 5.3.8. В случае уменьшения размера ежемесячной заработной платы или пенсии уведомить об этом отделению банка в течение 5 (пяти) банковских рабочих дней.
- 5.3.9. В случае увольнения уведомить отделению банка в течение одного банковского рабочего дня со дня подачи





bir bank ish kuni ichida bank hududiy boʻlinmasini xabardor qilish.

5.3.10. "Online kredit"mikrogarzning asosiy qarzi va foiz qarzdorliklarini mazkur oferta shartnomasida belgilangan muddatda so'ndirmagan taqdirda mikroqarzning asosiy qarzi va foiz qarzdorliklari bo'yicha mablag'larning zarur O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 783-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha bank muassasalarida har qanday valyutada ochilgan qarz oluvchiga tegishli bo'lgan bank karta (BK) lari va hisobvaraqlaridagi omonat pul mablag'laridan akseptsiz ravishda bank undirib tomonidan olinishiga rozi boʻlish va bunga qarshilik qilmaslik.

Agarda akseptsiz undirib olish qarz oluvchiga tegishli bo'lgan xorijiy valyutada ochilgan bank karta (BK) lari va omonat hisobvaraqlariga nisbatan qo'llanilsa, mikroqarzning asosiy qarzi va foiz qarzdorliklari bo'yicha zarur mablag'larning, yechib olinadigan sanada Markaziy bankning valyutani sotish kursi bo'yicha konvertatsiya qilingan holda akseptsiz tartibda bank tomonidan yechib olinishiga rozi boʻlish va bunga qarshilik qilmaslik.

5.3.11. Oʻzining BK hisobvaragʻiga kelib tushgan mablagʻlar va naqd pul mablagʻlari

заявления об увольнении работодателю.

5.3.10. B случае непогашения процентной основного долга И микрозайму ПО задолженности "Online кредит" в срок, указанного в договоре, согласие дать препятствовать списанию банком необходимых денежных средств по процентной основному долгу И задолженности микрозайма безакцептном порядке с банковских карт (БК) и с депозитных счетов, принадлежащих заемщику, открытых в любой валюте во всех банковских учреждениях Республики Узбекистан В 783 соответствии co статьей Гражданского кодекса Республики Узбекистан.

В случае применения безакцептного списания К банковским картам (BK) И депозитным счетам, открытым инностранной валюте, принадлежащих заемщику (себе) дать согласие и не препятствовать при списании конвертированных по курсу Центрального банка на дату списания необходимых денежных средств ПО основному долгу процентной задолженности микрозайма в безакцептном порядке.

5.3.11. Осуществлять погашение основной суммы микрозайма и начисленных процентов за счет





hisobidan mikroqarz summasi va unga hisoblangan foizlarni qaytarish.

- 5.3.12. Mikroqarz va unga hisoblangan foizlarni oʻz vaqtida va toʻliq qoplanishiga ta'sir koʻrsatishi mumkin boʻlgan barcha holatlar haqida bankni oʻz vaqtida xabardor etish.
- 5.3.13. Qarzdor bilan bank oʻrtasida aloqa vositasi boʻlgan, ya'ni qarzdor bilan bogʻlanish imkonini beruvchi ma'lumotlar (telefon raqam va boshqalar)ning oʻzgarganligi haqida, bankni uch kunlik muddatda yozma tartibda ogohlantirish.
- 5.3.14. Shartnoma bekor qilingan hollarda qarz oluvchi kredit asosiy qarzi va foiz toʻlovlarini muddatidan oldin toʻliq qaytarish majburiyatini oladi.

5.4. Mijozning huquqlari:

- 5.4.1. Bankning "Online kredit"-mikroqarz mahsuloti shartlari bilan tanishib chiqish.
- 5.4.2. Bank mas'ul xodimlaridan "Online kredit"-mikroqarz mahsuloti bo'yicha o'z huquq va majburiyatlari to'g'risida ishonchli hamda to'liq axborot olish.
- 5.4.3. Mazkur shartnoma shartlarining shartnomada belgilangan tartibda va muddatlarda bajarilishini talab qilish.

наличных денежных средств и денежных средств, поступивших на счет БК.

- 5.3.12. Своевременно уведомлять банк обо всех обстоятельствах, которые могут повлиять на своевременное и полное погашение микрозайма и начисленных процентов.
- 5.3.13. Письменно сообщить банку в течение трех дней об изменении данных (номер телефона и т.п.), являющихся средством связи между должником и банком, то есть данных, позволяющих связаться с должником.
- 5.3.14. В случае расторжения договора заемщик обязуется досрочно погасить основную сумму кредита и процентные платежи в полном объеме.

5.4. Клиент в праве:

- 5.4.1. Ознакомиться с условиями банковского продукта (микрозайма) "Online кредит".
- 5.4.2. Получать достоверную и полную информацию от ответственных сотрудников банка о своих правах и обязанностях в отношении продукта (микрозайма) "Онлайн кредит".
- 5.4.3. Требовать выполнения условий данного договора в соответствии с условиями и сроками, указанными в настоящем Договоре.





5.4.4. Olingan kredit summasini qaytarishni muddatidan ilgari amalga oshirish. Bunday holda faqat kreditdan haqiqatda foydalanilgan muddat uchun foizlarni toʻlash.

6. Taraflarning javobgarligi

- 6.1. Shartnoma majburiyatlari toʻliq yoki qisman bajarilmaganligi uchun tomonlar amaldagi qonunchilikka muvofiq javobgar hisoblanadilar.
- 6.2. Qarz oluvchi bankka notoʻgʻri ma'lumotlar berilishi sababli kelib chiqadigan holatlar uchun javobgar hisoblanadi.
- 6.3. Bank qarz oluvchining shaxsiy ma'lumotlari, PIN (PIN) kodlari va parollari boshqa shaxslarga qarz oluvchining aybi bilan ma'lum bo'lib qolishi holatlari hamda bunday holatlar oqibatida qarz oluvchiga yetkazilgan zararlar uchun javobgar bo'lmaydi.
- 6.4. Taraflar oʻz majburiyatlari boʻyicha oʻzlarining mulklari bilan ham javobgardirlar.

7. Maxfiylik

7.1. Maxfiy ma'lumot deyilganda, mazkur shartnomani va uning shartlarini bajarish jarayonida bir tomon ikkinchi tomonga taqdim qiladigan har qanday ma'lumot nazarda tutiladi va tomonlar Oʻzbekiston Respublikasining

5.4.4. Осуществить досрочный возврат полученного кредита. В этом случае оплата процентов производится только за период фактического использования кредита.

6. Ответственность сторон

- 6.1. Стороны несут ответственность в соответствии с действующим законодательством за полное или частичное неисполнение договорных обязательств.
- 6.2. Заемщик несет ответственность за ситуации, возникающие из-за предоставления банку недостоверной информации.
- 6.3. Банк не несет ответственности за случаи, когда персональные данные заемщика, ПИН-коды и пароли стали известны другим лицам по вине заемщика, а также ущерб, причиненный за заемщику результате таких ситуаций.
- 6.4. Стороны также отвечают по своим обязательствам своими имуществами.

7. Конфиденциальность

7.1. Конфиденциальная информация означает любую информацию, предоставляемую одной стороной другой В ходе исполнения настоящего договора и его условий, при стороны ЭТОМ





"Bank siri toʻgʻrisida"gi qonuni, tijorat siri va shaxsiy ma'lumotlarning muhofazasi, tarqatilishi hamda saqlanishiga oid boshqa qonun hujjatlariga rioya qilishlari shart.

- 7.2. Agar qonun hujjatlarida boshqa narsa nazarda tutilmagan boʻlsa, tomonlar quyidagilarga majburdirlar:
- boshqa tomonning oldindan yozma roziligisiz maxfiy ma'lumotlarni oshkor qilmaslik, mazmunini muhokama qilmaslik, nushalarini bermaslik, nashr qilmaslik yoki uchinchi shaxslarga boshqacha tarzda oshkor qilmaslik;
- maxfiy ma'lumotlarni himoya qilish va ruxsatsiz oshkor etilishining oldini olish uchun barcha choralarni ko'rish va barcha qonuniy vositalardan foydalanish;
- maxfiy ma'lumotlardan faqat mazkur Shartnoma boʻyicha majburiyatlarni bajarish uchun foydalanish.

8. Nizolarni hal qilish

- 8.1. Ushbu shartnoma yoki uning ijrosi bilan bogʻliq masalalar yuzasidan kelib chiqadigan barcha nizolar tomonlarning kelishuvi bilan hal qilinadi.
- 8.2. Tomonlarning kelishuvi bilan hal qilib boʻlmaydigan nizolar

обязаны соблюдать Закон Республики Узбекистан "О банковской тайне", коммерческую тайну и другие законодательные документы по охране, распространения и хранения персональных данных.

- 7.2. Если иное не установлено законодательством, стороны обязаны:
- не разглашать, не обсуждать смысл, не давать копии, публиковать или иным образом раскрывать конфиденциальную информацию третьим лицам без предварительного письменного согласия другой стороны;
- принимать все меры и использовать все законные средства для защиты конфиденциальной информации и предотвращения ее несанкционированного разглашения;
- использовать конфиденциальную информацию только для выполнения обязательств по настоящему Договору.

8. Разрешение споров

- 8.1. Все споры, вытекающие из настоящего договора или вопросы, связанные с его исполнением, решаются по соглашению сторон.
- 8.2. Споры, которые не могут быть разрешены соглашением





qonunchilikda belgilangan tartibda sud orqali hal qilinadi.

9. Korrupsiyaga qarshi shartlar

- 9.1. Tomonlar shartnoma tuzishda shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan soʻng, shartnoma bilan bogʻliq korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishadilar.
- 9.2. Agar bir tomonga boshqa korrupsiyaga tomonning qarshi majburiyatlarni buzilishiga yo'l ma'lum qo'yganligi boʻlib qolsa, ikkinchi tomonni bu haqida zudlik bilan xabardor qilishi va ushbu tomondan oqilona muddat ichida tegishli choralar koʻrilishini va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan uni xabardor qilishini talab qilishi shart.

10. Fors-major

10.1. Taraflar ushbu shartnoma boʻyicha majburiyatlarning qisman yoki toʻliq bajarilmaganligi uchun, agar ushbu bajarilmaganlik shartnoma tuzilgandan keyin, Taraflar oldindan koʻra olishmagan, oqilona choralar bilan bartaraf etishi mumkin boʻlmagan favqulodda tusdagi hodisalar natijasida vujudga kelgan yengib boʻlmaydigan kuch holatlarining oqibatlari (zilzila, suv toshqini, yongʻin va boshqa tabiiy

сторон, подлежат разрешению судом в порядке, установленном законодательством.

9. Антикоррупционные положения

- 9.1. При заключении договора стороны обязуются не совершать коррупционных действий, связанных с договором, в течение срока действия договора и по истечении этого срока.
- 9.2. Если одной стороне станет известно, что другая сторона нарушила свои антикоррупционные обязательства, она обязана незамедлительно сообщить об этом второй стороне и потребовать от этой стороны принятия соответствующих мер разумный В срок И проинформировать ee 0 предпринятых действиях.

10. Форс-мажор

освобождаются 10.1. Стороны от ответственности за частичное или полное неисполнение обязательств настоящему ПО Договору, если это неисполнение явилось следствием обстоятельств непреодолимой силы (землетрясение, наводнение, пожар и другие стихийные бедствия), которые Стороны не могли предвидеть и не могли устранить





ofatlar) hisoblansa, javobgarlikdan ozod etiladi.

10.2. Yengib boʻlmaydigan kuch holatlariga asoslanadigan Taraf boshqa Tarafni bunday holatlar boshlanganligi toʻgʻrisida yozma ravishda zudlik bilan xabardor qilishi shart, shu bilan birga istalgan tarafning talabiga koʻra holatlarning yuzaga kelish faktini tasdiqlovchi, tegishli organ tomonidan berilgan hujjat taqdim etilishi kerak.

11. Shartnomaning amal qilish muddati

- 11.1. Ushbu shartnoma qarz oluvchi tomonidan "MAVRID" ilovasi orqali tasdiqlangan kundan boshlab tuzilgan hisoblanadi va yuridik kuchga kiradi.
- 11.2. Mazkur shartnoma Taraflar oʻz majburiyatlarini toʻliq bajargunga qadar amal qiladi.

12. Yakuniy qoidalar

- 12.1. Mazkur shartnoma elektron tarzda "MAVRID" ilovasi orqali tuzilib, tomonlarning har biri elektron tarzda yuklab oladi va qonuniy kuchga ega boʻladi.
- 12.2. Ushbu shartnomani imzolash bilan qarz oluvchi oʻziga tegishli zaruriy shaxsiy ma'lumotlarni bank

разумными мерами после заключения Договора.

10.2. Сторона, ссылающаяся на обстоятельства непреодолимой силы, обязана незамедлительно письменно уведомить другую Сторону o наступлении таких обстоятельств, a ПО требованию любой из сторон должен предоставлен документ, выданный соответствующим органом, подтверждающий факт наступления обстоятельств.

11. Срок действия договора

- 11.1. Настоящий договор считается заключенным и вступает в юридическую силу с момента его подтверждения заемщиком через приложение "MAVRID".
- 11.2. Настоящий договор действует до полного исполнения сторонами своих обязательств.

12. Заключительные положения

- 12.1. Настоящий договор заключается в электронной форме через приложение "MAVRID", каждая из сторон загружает его в электронном виде и приобретает юридическую силу.
- 12.2. Подписанием настоящего договора заемщик дает право получать, обрабатывать и/или запрашивать банком необходимые





tomonidan olinishi, qayta ishlanishi va/yoki talab qilinishi huquqini beradi.

12.3. Ushbu shartnomada aks ettirilmagan holatlar Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi asosida tartibga solinadi.

12.4. Shartnomaga barcha oʻzgartirish va qoʻshimchalar qoʻshimcha shartnoma tuzish orqali rasmiylashtiriladi.

13. Rekvizitlar "Mikrokreditbank" ATB

Manzil: 100047, Oʻzbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Mirobod tumani, Amir Temur shoh koʻchasi 4-uy.

Tel.: 1285, +998 55 503-63-63 **H/v:** 1990 000 00000433001

MFO: 00433 **STIR:** 200547792

E-mail: office@mikrokreditbank.uz

персональные данные, относящиеся к нему.

12.3. Обстоятельства, не предусмотренные настоящим договором, регулируются действующим законодательством Республики Узбекистан.

12.4. Все изменения и дополнения к договору оформляются путем заключения дополнительного договора.

13. Реквезиты АКБ "Микрокредитбанк"

Адрес: 100047, Республика Узбекистан, город Ташкент, Мирабадский район, проспект Амира Темура, 4.

Тел.: 1285 (+998) 55-503-63-63 Р/с: 1990 000 00000433001

> **МФО:** 00433 **СТИР:** 200547792

E-mail: office@mikrokreditbank.uz